



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Dastlabki ma'lumot
2024 - yil yanvar- aprel



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 71-203-88-20(21)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 750 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 284 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 466 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 25 925,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 110,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 11 514,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 123,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 14 411,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 101,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 756,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 120,2 %) tashkil etdi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2023- yil yanvar- mart oyiga nisbatan, foizda |
|----------------------------|---------------------|---|
| Toshkent shahri | 25 925,3 | 110,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Uchtepa | 2 288,1 | 105,6 |
| Bektemir | 933,8 | 108,4 |
| Yunusobod | 2 942,0 | 107,3 |
| Mirzo Ulug'bek | 1 913,9 | 109,1 |
| Mirobod | 1 885,3 | 111,0 |
| Shayxontohur | 2 924,3 | 117,8 |
| Olmazor | 2 028,3 | 106,0 |
| Sirg'ali | 1 383,1 | 110,1 |
| Yakkasaroy | 2 586,3 | 106,5 |
| Yashnobod | 2 184,0 | 111,5 |
| Yangihayot | 346,4 | 120,3 |
| Chilonzor | 4 509,7 | 112,1 |

2024- yilning yanvar-aprel oylarida 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan Toshkent shahrining Yangihayot (120,3 %), Shayxontohur (117,8 %) va Chilonzor (112,1 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-aprel)**

89,7 %



115,3 %



110,5 %



111,2 %



110,0 %



2020- y.

2021- y.


2022- y.

2023- y.

2024- y.

So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil qildi.

**2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)**



2024- yilning yanvar- aprel oylarida o'sish sur'ati **110,0%** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,4 % bilan 4 509,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,3 % bilan 346,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so 'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-aprel oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 14 411,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,0 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,6 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 23,6 % ga o'sdi va 11 514,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 44,4 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (19,7 %), Uchtepa (12,8 %) va Yunusobod (11,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 44,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (44,4 %), Yashnobod (12,9 %), Shayxontohur (11,5%), Mirzo Ulug'bek (11,1%) tumanlarida kuzatildi.

44,4 %



55,6 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Toshkent shahri

8 501,2

Yangihayot

1 965,9

Uchtepa

7 632,2

Chilonzor

16 375,1

Bektemir

15308,4

Yunusobod

7 799,7

Mirzo Ulug'bek

5 769,9

Mirobod

12 362,9

Shayxontohur

7 992,1

Olmazor

5 004,3

Sirg'ali

8 184,1

Yakkasaroy


19 286,1

Yashnobod

7 243,9

2024- yilning yanvar- aprel oylari holatiga o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 8 501,2 ming. so'mni (2023- yilning yanvar- aprel oylariga nisbatan 107,0 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Yakkasaroy (19 286,1 ming. so'm), Chilonzor (16 375,1 ming. so'm) va Bektemir (15 308,4 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- aprel), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

| | Jami, mlrd. so'm | 2023 - yil yanvar- aprel oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|------------------------|--|
| Toshkent shahri | 707,4 | 121,1 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Uchtepa | 44,0 | 60,9 |
| Bektemir | 166,8 | 131,2 |
| Yunusobod | 121,3 | 105,9 |
| Mirzo Ulug'bek | 99,5 | 124,1 |
| Mirobod | 11,3 | 46,6 |
| Shayxontohur | 110,4 | 101,6 |
| Olmazor | 27,8 | 2,4 m. |
| Sirg'ali | 22,8 | 116,6 |
| Yakkasaroy | 15,4 | 158,1 |
| Yashnobod | 69,8 | 5,3 m. |
| Yangihayot | - | - |
| Chilonzor | 18,5 | 5,7 m. |


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- aprel)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-aprel)



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 756,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 120,2 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 707,4 mlrd.so'mni (121,1%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 48,6 mlrd so'mni (108,4%) tashkil etdi .

2024-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 707,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (363,9 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi

| | | |
|--|--|--|
| Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 707,4 mlrd. so'm  48,1 % | Non va non mahsulotlari 84,9 mlrd. so'm  11,2 % | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 38,6 mlrd. so'm  5,1 % |
| Tovuq go'shti 46,5 mlrd. so'm  6,1 % | Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 19,6 mlrd. so'm  2,6 % | Tuxum 20,4 mlrd. so'm  2,7 % |
| Ziravorlar 43,2 mlrd. so'm  5,7 % | Sut va sut mahsulotlari 50,7 mlrd. so'm  6,7 % | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak 0,1 mlrd. so'm  0,01 % |
| Tuzlamalar 22,0 mlrd. so'm  2,9 % | Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 15,2 mlrd. so'm  2,0 % | Nooziq-ovqat tovarlar 2,4 mlrd. so'm  0,3 % |

2024-yilning yanvar-aprel oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va

Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 48 618,7mln. so'mni (101,0%) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи 40 492,3 mln.so'm, qo'y va echkilar – 6 010,7 mln. so'mni, otlar – 2 000,8 mln. so'mni, parrandalar – 73,2 mln. so'mni, quyonlar- 41,8 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi

| | | |
|---|--|---|
| 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar | 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar | 1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar |
| 17 505,7 mln. so'm | 10 620,7 mln. so'm | 12 365,9 mln. so'm |
| 2,3 % | 1,4 % | 1,6 % |

| | | |
|------------------------------|------------------------------|----------------------------|
| Qo'yilar | Otlar | Echkilar |
| 5 280,1 mln. so'm | 2 000,8 mln. so'm | 730,7 mln. so'm |
| 0,7 % | 0,3 % | 0,1% |

| | | |
|----------------------------|---------------------------|---------------------------|
| Kurka, o'rdak, g'oz | Tovuqlar | Quyonlar |
| 28,0 mln. so'm | 13,5 mln. so'm | 41,8 mln. so'm |
| 0,004 % | 0,002 % | 0,006 % |

| |
|---------------------------|
| Qushlar |
| 31,6 mln. so'm |
| 0,004 % |



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 908 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 832 tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda |
|------------------------|--------------------|---|
| Toshkent shahri | 2 718,8 | 114,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Uchtepa | 73,3 | 118,4 |
| Bektemir | 45,7 | 104,4 |
| Yunusobod | 381,9 | 122,3 |
| Mirzo Ulug'bek | 255,4 | 102,6 |
| Mirobod | 193,6 | 102,5 |
| Shayxontohur | 742,9 | 123,9 |
| Olmazor | 125,5 | 114,5 |
| Sirg'ali | 205,0 | 102,6 |
| Yakkasaroy | 231,9 | 112,6 |
| Yashnobod | 184,8 | 110,2 |
| Yangihayot | 40,0 | 104,9 |
| Chilonzor | 238,8 | 118,4 |

2024- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 718,8 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 57,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|------------------------|----------------------|-------------------|
| Toshkent shahri | 10 571,9 | 100,0 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Uchtepa | 327,8 | 3,1 |
| Bektemir | 496,5 | 4,7 |
| Yunusobod | 1 375,6 | 13,0 |
| Mirzo Ulug'bek | 486,6 | 4,6 |
| Mirobod | 572,0 | 5,4 |
| Shayxontohur | 922,5 | 8,7 |
| Olmazor | 87,1 | 0,8 |
| Sirg'ali | 3 626,6 | 34,3 |
| Yakkasaroy | 819,9 | 7,8 |
| Yashnobod | 700,0 | 6,6 |
| Yangihayot | 535,5 | 5,1 |
| Chilonzor | 621,8 | 5,9 |

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (3 626,6 mlrd. so'm), Yunusobod (1 375,6 mlrd. so'm) va Shayxontohur (922,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash* va *texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 10 571,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 5 782,1 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 183,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 4 789,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 105,9 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so'mda

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 47 972,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 11,7 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

38,7 %
18 544,1 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

61,3 %
29 428,3 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 29 428,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 61,3 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 17 376 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 224 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 17 152 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Yangihayot(2,2 m.), Bektemir (152,6 %.) va Mirobod (124,9 %) tumanlarida kuzatildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2023- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, foizda |
|----------------------------------|--------------------|--|
| Toshkent shahri tumanlar: | | |
| Uchtepa | 3 004,6 | 112,2 |
| Bektemir | 782,7 | 152,6 |
| Yunusobod | 4 423,8 | 116,7 |
| Mirzo Ulug'bek | 3 735,8 | 106,6 |
| Mirobod | 5 997,2 | 124,9 |
| Shayxontohur | 2 564,8 | 105,5 |
| Olmazor | 7 129,9 | 105,1 |
| Sirg'ali | 2 146,6 | 110,7 |
| Yakkasaroy | 6 202,7 | 104,9 |
| Yashnobod | 5 772,2 | 111,4 |
| Yangihayot | 790,6 | 2,2 m. |
| Chilonzor | 5 421,5 | 106,9 |